

YOSHLARNI BARKAMOL QILIB TARBIYALASHDA O'ZBEK XALQINING OILAVIY QADRIYATLARI

Xusanov G'olib Elmurodovich
SamDChTI, Gumanitar fanlar va axborot
texnologiyalari kafedrasi tadqiqotchisi

Annotatsiya. Yoshlar har bir xalqning ertangi keoajagi, jamiyat farovonligi uchun mas'ul bo'lgan barkamol avlod bo'lib sanaladi. Maqolada ularning o'zbek oilaviy qadriyatlari bilan tarbiyalanishi dolzabrligi ijtimoiy-falsafiy tahlil etilgan. O'zbek xalqining kundalik turmush tarzida boy madaniy va diniy an'analar mavjud bo'lib, ularni yoshlarga singdirish lozim. Bu an'analar o'tmishni bugun va kelajak bilan bog'lab, o'ziga xoslik va davomiylik tuyg'usini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: o'zbek xalqi, o'zbek oilasi, oilaviy qadriyatlari, yoshlar, axloqiy tafakkur, madaniyat, falsafa, etnoan'ana, bo'sh vaqt, taransformatsiya.

Annotation. Young people are considered to be the perfect generation responsible for the well-being of society and the tomorrow of every nation. The article analyzes the socio-philosophical importance of their upbringing with Uzbek family values. There are rich cultural and religious traditions in the everyday life of the Uzbek people, which should be inculcated in the youth. These traditions connect the past with the present and the future, providing a sense of identity and continuity.

Key words: Uzbek people, Uzbek family, family values, youth, moral thinking, culture, philosophy, ethno-tradition, free time, transformation.

O'zbek xalqi o'zining asrlar davomida shakllangan oilaviy qadriyatlari orqali yoshlarni barkamol shaxs bo'lib voyaga etishiga intilib kelgan. Bugun bu qadriyatlari zamonaviy oilalarda ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi ijtimoiy-falsafiy munosabatlarda G'arbona ko'rinishda shakllanayotganligini ko'rishimiz mumkin. Aslida o'zbek xalqida azaldan oila muqaddas sanalib, unda yoshlar milliy ruhda tarbiyalangan. Birinchidan, o'tmishda o'zbek xalqining oila a'zolari bir hovlida birga yashashgan bo'lsa, so'nggi davrlarda yosh oilalar alohida yashashga xohish bildirishmoqda. Shuning bilan birga, ilgari yosh ota-onalar tarbiyada bobo-buvilarning yo'l yo'riqlariga amal qilgan bo'lsalar, hozirda yoshlarga mana shu tarbiyaviy tajriba etishmayotganligi kuzatilmoqda. Ikkinchidan, bugun o'zbek xalqidagi oilviy qadriyat deb atalayotgan ayollarning erkaklarni oila boshi sifatida hurmat qilishi ba'zida o'zgarib ayollarning roli bir necha barobar oshganini ko'ramiz. Bu oilaning ham iqtisodiy, ham madaniy hayotida o'z aksini topmoqda. Uchinchidan, bugun o'zbek xalqining oilalarida va qonunchiligidagi bolaning roli oshdi. Bunday paytda ayrim ota-onalar farzandining intellektual talablarini o'z vaqtida to'g'ri anglab etib, bolasining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga alohida ahamiyat berib, ularni qo'shimcha mashg'ulotlarga jalb etishayotganligi ijobiy holdir. Ushbu fikr-mulohazalar o'zbek xalqining oilaviy qadriyatlari etnoan'analar transformatsiya jarayonlari bilan bog'lanib ketganligini ko'rstaadi. Bu borada Sh.To'raev fikr bildirar ekan, "Nazаримда бизнинг жамиятимиз учун мөн бо'лган замонави油 oila tushunchasining yangi talqini yaratish vaqt keldi... Milliy qadriyatlari ustuvor bo'lib ham ma'nan, ham moddiy jihatdan farovonlikka intilgan oilalarni zamonaviy degan bo'lar edim. Masalan, g'arbda hurmat qonun bilan

belgilanadi. Lekin biz milliy qadriyatlarimiz bo‘lganligi uchun ham kattayu-kichikka birday hurmat ehtirom ko‘rsatamiz”[1]. Bu qarashlar o‘zbek oilasi haqidagi tasavvurlar yanigcha falsafa bilan shakllanayotganligini anglatadi.

O‘zbek xalqining yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashida etnoan’analar orqali ro‘y berishi mumkin bo‘lgan transformatsiyalarni bashorat qilish ijtimoiy taraqqiyot talablaridan kelib chiqishni taqozo etadi. Jamiyat belgilab olgan strategik maqsad, bu maqsad bilan bog‘liq tarbiyaviy, ijtimoiy, huquqiy va madaniy vazifalar etnoan’analardagi jihatlarni u yoki bu tomonga o‘zgartirishi mumkin. Jamiyatdagi o‘zgarishlar etnoan’analarning ichki qonunlariga, talablariga ijobiy ta’sir ko‘rsatganida, tarixiy-madaniy meros e’zozlab kelayotgan qadriyatlarga biror nima qo‘sghanida transformatsiya jarayonlari tabiiy voqelik sifatida qabul qilinadi. O‘zbek oilasi mudom etnoan’analarini tufayli barqaror, etnoan’analaridagi transformatsiya o‘zbek oilasidagi o‘zgarishlarning ham ifodasidir.

O‘zbek oilasida etnoan’analar oilaviy qadriyatlar tizimida ijtimoiy-falsafiy voqelik sifatida qarash keng tarqalgan. “Umuman olganda, oilaviy an’ana – ajdodlarning tarixan to‘plagan ma’naviy qadriyatlarini avlodlarga etkazish, o‘tmishdan kelajakka meros qoladigan, avloddan avlodga o‘tadigan, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo‘ladigan moddiy va ma’naviy qadriyat” [2.31] sanaladi. Demak, inson va jamiyat munosabatlari kechadigan har qanday muhit, aloqalar shakllari, faoliyat ko‘rinishlaridan oilaviy etnoan’ana izlarini izlash va topish mumkin. Shu ma’noda yoshlarni oilaviy qadriyatlar asosida barkamolligini ta’minalash muhimdir. Mutaxassislar oilaviy an’analarni qadriyat sifatida qaraganlarida ularni bir-biriga zid voqeliklar deb emas, balki ma’lum bir ijtimoiy-tarixiy va madaniy shart-sharoitlar ta’sirida bir-birini taqozo etib, an’analarning qadriyatlarga aylanib kelishini nazarda tutishadi. Xuddi shuningdek, ushbu jihatning markazida oila, inson va jamiyat munosabatlari turadi. Oila hayotidan joy olgan etnoan’analar ijtimoiy qadriyatga aylanadi, xalq, millat e’zozlaydigan ma’naviy boylikdir. Ijtimoiy boshqarish institutlari, mehnat jarayonlari, ayniqsa, ishlab chiqarish bilan bog‘liq munosabatlar yoshlarni oilaviy qadriyatlarni e’zozlashga xizmat qiladi. Jamiyatda axloqiy qadriyatlar, normalar mazkur institutlarga ta’sir etmay qolmaydi, lekin ular etnoan’analarni ijtimoiy boshqarish talablariga bo‘ysundiradilar. Aks holda bu ijtimoiy institutlar o‘zining funksiyalarini bajarolmaydi, ta’lim-tarbiya o‘choqlari o‘rniga da’vogar bo‘ladi. Shuning uchun biz oilaviy etnoan’analar va qadriyatlar arxitonikasini aniqlashda oilaviy hayot tarzidan, undagi sinxron va diaxron aloqalar xususiyatlaridan kelib chiqamiz. Bu xususiyatlar avvalo oila qurishda nazarda tutilgan maqsadlardan kelib chiqib aniqlanadi.

Keyingi yillarda yoshlar moddiy boylikning, mulkning qanday kuchga, ta’sirga ega ekanini anglab etishgan. Internetda berilayotgan “topishish, tanishuvlar”da nafaqat sirtqi go‘zallik, balki avvalo mol-mulk, bo‘lg‘usi kuyov yoki bo‘lg‘usi kelin qanday mulklarga ega ekani ochiq namoyish qilinmoqda. Yoshlar oila qurishdan maqsad-ikki qalbning muhabbatni, ularning ahd-paymonlari, farzand ko‘rib, baxtli yashash niyati ekanligini bilishadi. Yoshlar oila qurishdagi fundamental qadriyatlarlarga ta’sir etayotgan ekan, uni e’tibordan soqit qilib bo‘lmaydi. “Payg‘ambarimiz (s.a.v.) birhadislarida shunday deydilar: “Ayollarni faqat go‘zalligi uchun nikohingizga olmanglar. Ehtimol go‘zalliklari ularni axloqiy jihatdan pasaytirar. Ayollarga mol

dunyolari uchun uylanmanglar. Balki mollari ularni yo‘ldan ozdirar. Ayollarga dindorliklari uchun uylaning. Shubhasiz, yirtiq libosli, qora, lekin dindor ayol qimmatliroqdir”[3. 9]. Bugun yoshlarni tarbiyalashda oilaning naqadar zarur ekanligini barsa chuqur anglashi lozim.

O‘zbek xalqining oilaviy qadriyatlarida nasl-nasabni surishtirish muhim qadriyat, etnoan’ana hisoblanadi. Bu etnoan’ananing bo‘rttirilgan ifodasi “Boy boyga boqar, suv soyga oqar”, “Ko‘rpangga qarab oyoq uzat” kabi maqollarda berilgan. Shu boisdan o‘zbek xalqining oilaviy qadriyatlari uning boy madaniy merosida chuqur ildiz otib, yoshlar tarbiyasida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bu qadriyatlar shunchaki kundalik hayot uchun fon emas, balki, ular ijtimoiy tuzilmaning ajralmas qismi bo‘lib, o‘sib kelayotgan yosh avlodning fe’l-atvori, axloqi va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirishda xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek xalqining oilaviy qadriyatlari yoshlar xarakterini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu qadriyatlar hurmat, mas’uliyat, jamiyat va madaniy o‘ziga xoslik tuygg‘usini rivojlantiradi. Bu esa o‘z merosiga sodiq qolgan holda zamonaviy hayot qiyinchiliklarini engishda ularga yordam beradi. Bunday qadriyatlarga alohida e’tibor qaratilishi o‘zbek madaniyatining mazmun-mohiyati saqlanishi va avloddan-avlodga o‘tib borishini, shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda o‘z dolzarbliji va jo‘shqinligini saqlab qolishini ta’minlaydi.

Foydalilanlgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Тўраев Ш. Замонавийликнинг янги талқини // Oila va jamiyat, 2018. 28 ноябрь, № 46 (1399).
2. Шоумаров Ф.Б., Расулова З.А. Оила энциклопедияси. -Тошкент: ИЛМ ЗИЁ ЗАКОВАТ, 2016. 31-бет.
3. Бахтили оила қурамиз. Таржимон ва тўплаб нашрга тайёрловчи Ш.Нуритдинова. - Тошкент: Voris Nashriyot, 2006. 9-бет.